Annotatsiya: Maqolada Namangan viloyati qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining faoliyati samaradorligini ta'minlash holati va tahlili natijalari ishlab chiqilgan. Xorijiy olimlarning tadqiqotlaridan foydalangan holda qurilish materiallarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mexanizmlari tahlil qilingan. O'zbekistonda qurilish sohasiga qo'yilmalar, ularning tahlili va ulushi o'rganilgan. O'zbekistonda 2017–2022 yillarda islohotlarning natijasi o'laroq, qurilish sektori iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan jadal o'zgarishi va qurilishda band bo'lganlar ulushi va o'sish surati ko'rsatib berilgan. Respublika bo'yicha qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalari samaradorligiga tashqi omillarining ta'siri ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy iqtisodiyot, kapital qurilish, xorijiy investitsiya, qurilish industriya, sanoati mahsulotlari, raqobatbardosh, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract: The article develops the results of an analysis of the state of ensuring the efficiency of enterprises producing building materials in the Namangan region. With the help of research by foreign scientists, mechanisms for increasing the efficiency of production of building materials were analyzed. Investments in the construction sector of Uzbekistan, their analysis and share were studied. As a result of reforms in Uzbekistan in 2017–2022, the construction sector has changed rapidly compared to other sectors of the economy, showing the percentage of people employed in construction and the growth pattern. The influence of external factors on the efficiency of enterprises producing construction materials in the republic is shown.

Key words: National economy, capital construction, foreign investment, construction industry, industrial products, competitiveness, economic efficiency.

Аннотация: С помощью исследований зарубежных ученых проанализированы механизмы повышения эффективности производства строительных материалов. Изучены инвестиции в строительный сектор Узбекистана, их анализ и доля. В результате реформ в Узбекистане в 2017–2022 годах строительный сектор быстро изменился по сравнению с другими отраслями экономики, показан процент занятых в строительстве и картина роста. Показано влияние внешних факторов на эффективность предприятий по производству строительных материалов в республике.

Ключевые слова: Национальная экономика, капитальное строительство, иностранные инвестиции, строительная отрасль, промышленная продукция, конкурентоспособность, экономическая эффективность.

KIRISH

Qurilish sohasi aholi birlamchi zaruriy ehtiyojlari takibidagi yashash ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Dunyoda aholi soni ortishi bilan bu ehtiyojlari ham jadal ortib bormoqda. Iqtisodiy salohiyatga va rivojlangan infratuzilmaga ega bo'lgan mamlakatlarda qurilish sohasi iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, "Yaqin 10 yillik kelajak (2030-yilgacha bo'lgan davr)da dunyo bo'yicha qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi har yili o'rtacha 2,3 %ga ortib borishi prognozlanmoqda. Ko'rsatib o'tilgan davrda rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari)da qurilish sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida o'rtacha yillik 0,1-0,5 % atrofida pasayishi kuzatilsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 5,0-8,0 % atrofida o'sishi kutilmoqda. Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish va uning samarali faoliyatini ta'minlash barcha mamlakatlarda dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunga esa iqtisodiy, tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish hamda zamonaviy texnologiyalarini qo'llash orqali erishish talab etiladi.



O'zbekistonda qurilish sohasining tarkibiy qismi bo'lgan qurilish materiallari sanoati tarmog'i korxonalarida texnologik va tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarini takomillashtirishga, soha korxonalarida bozor mexanizmlarini izchil joriy etishga va ularda ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish jarayonlarini diversifikatsiya qilishga, tarmoqda qo'shilgan qiymat zanjirining to'laqonli shakllantirish orqali soha korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirishga, shu orqali bandlikni ta'minlash, aholining qurilish mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda turmush farovonligini oshirishga katta e'tibor berilmoqda.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham qurilish mahsulotlari bozorini rivojlantirish bo'yicha "Qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish va sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Ularning samarali ijro etilishini ta'minlash sohada energiya tejamkor materiallarini keng joriy etib uy-joy qurilish muddatlarini qisqartirish va tannarxini pasaytirish, qurilish materiallari ishlab chiqarishda xarajatlarni optimallashtirishni nazarda tutadi. Mazkur vazifalarning bajarilishida hududlarda kamida bittadan qurilish materiallarini ishlab chiqarishdan qurilish obyektlarini loyihalashtirish va tayyor ko'p qavatli uy-joylar qurishgacha qo'shilgan qiymat zanjirini o'zida jamlagan uy-joy qurilishi klasterlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular negizida qurilish mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning tashkiliy iqtisodiy mexanizmni yanada takomillashtiriladi va alohida korxonalar o'rtasidagi integratsion aloqalar shakllanadi. Aynan shu yo'nalishlarda qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirish borasidagi ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning iqtisodiy samaradorligini boshqarish bo'yicha xorijiy olimlardan: D.Rikardo, M.X.Meskon, D.J.Rechmen, M.H.Meskon, K.L.Bouvi, M.Porter, R.Chase, E. Demming, va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritib berilgan.

Shu bilan birga, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarida korxonalarda raqobat ustunliklaridan samarali foydalanish va aholi daromadini oshirish sohasini tadqiq etish bo'yicha V.M.Vasilsova, O.G.Turoves, B.A.Rayzberg, L.Sh.Lofovskiy, Ye.B.Starodubseva, N.I.Bazilev, F.Piter, A.Djozef, T.I.Batrakova, A.V.Kutsenko, T.A.Govorushko, N.I.Klimash va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

O'zbekistonda korxonalarning umumiy muammolari, ularning raqobatbardoshligini ta'minlash masalalari bo'yicha mahalliy olimlardan: M.Sharifxo'jayev, Yo.Abdullayev, N.K.Yo'ldoshev, R.I.Nurimbetov, Sh.N.Zaynutdinov, S.K.Salayev, B.B.Jumaniyazov, K.S.Tashmuxe'dova, U.I.Djumaniyazov, A.Abdullayev, Sh.A.Dexqonov, A.Abdug'aniyev va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Keltirib o'tilgan mutaxassis olimlarning ishlarida mavzu doirasida ko'proq korxona va tashkilotlar bo'yicha yondoshuvlar, ularning umumiy iqtisodiyotga ta'siri keng hamda chuqur o'rganilgan bo'lsada, aynan kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini shakllantirish va raqobat ustunliklaridan samarali foydalanish hamda rivojlantirish istiqbollari to'g'risida bayon etilmagan. Bu esa tadqiqot mavzusining tanlanishiga va uning maqsad hamda vazifalarini belgilashga sabab bo'ldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, statistik kuzatish, statistik jamlash va guruhlash, tanlanma, korrelyatsion va regression tahlil, ekonometrik modellashirish hamda prognozlash kabi usullar qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin egallagan Qurilish iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun asosiy fondlarni yaratishda iqtisodiy tarmoq sifatida ishtirok etadi. Kapital qurilish mahsulotlari deganda belgilangan tartibda foydalanishga topshirilgan va qabul qilingan ishlab chiqarish obyektlari va noishlab chiqarish obyektlari tushuniladi. Qurilishda bajarilgan ishning yakuni sifatida belgilangan mahsulot asosiy fondlarga aylanadi. Ularni yaratishda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari (qurilish materiallari sanoati, metallurgiya, mashinasozlik va kimyo sanoati va boshqalar) ishtirok etadi. Texnologik, energetik va boshqa asbob-uskunalar hamda mexanizmlar bilan jihozlangan bino va inshootlar asosiy ishlab chiqarish fondlarining jismoniy va moddiy tarkibini tashkil qiladi.

Kapital qurilish sohasida iqtisodiyotning 70 dan ortiq tarmoqlari bevosita yoki bilvosita ishtirok etib, qurilishni metall va metall konstruksiyalari, sement, yog'och, qurilish mashinalari, transport vositalari, yoqilg'i-energetika resurslari bilan ta'minlaydi. Qurilishda qurilish materiallari sanoati mahsulotlarining 50%, metall prokatining 18% ga yaqini, yog'ochning 40%, mashinasozlik sanoati mahsulotlarining 10% dan ortig'i foydalaniladi. Qurilishga sanoatning deyarli barcha tarmoqlari xizmat ko'rsatadi. Qurilish materiallarini, qurilish konstruksiyalarini va qurilish texnikasini tashish uchun transportning avtomobil, temir yo'l, daryo, dengiz va havo kabi deyarli barcha turlaridan foydalaniladi. Qurilish xarajatlarida transport xarajatlarining qiymati 20% ga etadi.



Shunday qilib, kapital qurilish ishlab chiqarish vositalarining ishlash imkoniyatini ta'minlaydigan moddiy sharoitlarni yaratadi. Qurilish industriyasi umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, loyiha-tadqiqot va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, qurilish industriyasi korxonalari qurilish birlashmalari tarkibida, shuningdek, qurilish-montaj ishlarini tejamkorlik bilan bajaruvchi tashkilotlar faoliyatini birlashtiradi. Bundan ko'rinadiki, qurilish tarmoqlari samaradorligini aniqlash keltirib o'tilgan tarmoqlarning sinergetik samarasi orqali ifoda etish maqsadga muvofiqdir.

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi uning barcha sohalarida shakllanadigan yalpi ichki mahsulot dinamikasi bilan belgilanadi. Qurilish moddiy sohaga mansub sanoat sifatida iqtisodiy tizimning barcha ishtirokchilari - yuridik va jismoniy shaxslarning asosiy fondlarini yaratish va tiklash uchun mo'ljallangan; budjet va tijorat tashkilotlari va boshqalar. Qurilishning muhim roli barcha zarur insoniy, moddiy, energiya va axborot resurslarni ehtiyotkorlik bilan ta'minlashni talab qiladi.

Qurilishni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish uni sanoatlashtirish asosida amalga oshiriladi, uning asosiy yo'nalishlari sifatida: binolarni yig'ish hajmini oshirish uchun texnologik jarayonlarning bir qismini qurilish maydonlaridan zavodlarga, statsionar ishlab chiqarish sharoitlariga o'tkazish va qurilayotgan inshootlar, binolar va inshootlarning texnologik loyiha yechimlarini takomillashtirish, qurilish ishlarining uzluksiz ishlab chiqarilishini ta'minlash maqsadida bino va inshootlarni qurish, qurilish materiallari va inshootlarini yetkazib berish bo'yicha texnologik operatsiyalar va jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish uzluksiz jarayonini kiritish mumkin.

Kapital qurilish funksiyalariga asosiy fondlarni yaratishdan tashqari, mavjud asosiy fondlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish va texnik jihatdan qayta qurollantirish kiradi. Shuning uchun ham kapital qurilishning asosiy vazifasi mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlari asosiy fondlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va sifat jihatidan yangilashdan iborat.

Qurilishga tayyorgarlik quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi: obyektning qurilish texnik-iqtisodiy asoslarini texnik-iqtisodiy o'rganish, obyektning loyihalash va qurilishga muhandislik-texnik tayyorgarlik. Har bir yo'nalishning o'z vazifalari bor. Texnik-iqtisodiy tadqiqotlar jarayonida kelajakdagi obyektning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari aniqlanadi va uni qurilishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi baholanadi.

Shunday qilib, qurilish materiallari sanoatini o'z ichiga olishi kerak bo'lgan turdosh tarmoqlar va kichik tarmoqlarni optimal o'zaro rivojlantirish zarurati tug'iladi, ularsiz qurilish jarayonini tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu ma'noda, dastlab O'zbekiston Respublikasida qurilish tarmoqlari faoliyatining iqtisodiy tahlilini ko'rib chiqishni maqsad qilib olindi (1-jadval).

1-jadval: 2010–2022-yillarda qurilish sanoatining O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotidagi hajmi va ulushi^[34]

	Ko'rsatkichlar	2010	2015	2020	2021	2022
1.	Yalpi ichki mahsulot, mlrd so'm	78936,6	221350,9	605514,9	738425,2	888341,7
2.	O'tgan yilga nisbatan o'sish, %	104,2	118,8	109,5	106,8	106,6
3.	Qurilish sanoatining yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissi, mlrd. so'm	8245,8	25423,1	88130,3	107492,7	123412,2
4.	Qurilishning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, %	5,4	5,7	6,7	6,6	6,7
5.	Asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so'm	16463,7	44810,4	210195,1	239552,6	251247,6
6.	O'tgan yilga nisbatan o'sishi, %	104,2	109,4	95,6	102,9	101,8
7.	Qurilishga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so'm	9,9	40,1	228,1	142,8	287,0
8.	O'tgan yilga nisbatan o'sishi, %	99,1	100,3	100,1	101,4	100,6
9.	Tugallangan qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	25423,1	25423,1	88130,3	107492,7	112425,5
10.	O'tgan yilga nisbatan o'sishi, %	105,1	118,8	109,5	106,8	105,4

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tahlil qilingan 2010–2022-yillarda qurilish sanoatining O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotidagi hajmining barcha ko'rsatkichlari o'sish tendensiyasiga ega, ammo Tugallangan qurilish ishlari hajmida 2020-yil ko'rsatkii 2010-yilga nisbatan 0,3 %ga oshgan bo'lsada, ushbu ko'rsatkich qolgan davrlarga nisbatan pasaygan. Bu esa o'z navbatada, tarmoqda keyingi davrlarda bajarilgan ishlarning miqdor jihatidan sifat darajasiga o'tganligi bilan izohlanadi.



O'zbekistonda 2017–2022-yillarda islohotlarning natijasi o'laroq, qurilish sektori iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan jadal sur'atlarda o'sayotganligini xususan, qishloq xo'jaligi 2017 yilda 1,2%, 2018 yilda 0,3%, 2019 yilda 3,1%, 2020-yilda 3,0%, 2021-yilda 4,0 %, 2022-yilda 3,6 %ga va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2017-yilda 5,2%, 2018 yilda 10,8%, 2019-yilda 5,0%, 2020 yilda 0,9%, 2021-yilda 8,8 %, 2022-yilda 5,2 %ga o'sgan bo'lsa, qurilish hajmi 2017–2022-yillarda mos ravishda 6,0%, 14,3%, 22,9%, 9,5%, 6,8 % va 6,6 %ga o'sgan.

Yana bir e'tiborli jihat shundaki, qurilish ishlarida nodavlat sektorining ulushi oshib bormoqda, 2020 yilda mazkur ko'rsatkich 95,2%ni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda 95,8% va 2022-yilda 96,1 %ga yetgan. Biroq bu hali yetarli miqdorda emas, chunki yalpi ichki mahsulot tarkibida qurilishning ulushi sezilarli darajada o'zgarishsiz qolmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, tarmoqning ijobiy natijalarga erishishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi [35] Farmoni qurilish sohasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi.


Xuddi shu kabi, Namangan viloyatida qurilish sohasida olib borilayotgan ishlar natijasiga e'tibor qaradigan bo'lsak, qurilishda shaffoflikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish choralari bo'yicha islohotlar samarasini oshirish bo'yicha "Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [36] ni, qurilishda sifat va nazoratni kuchaytirish bo'yicha islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5 fevraldagi "Qurilish-montaj ishlari sifatini tubdan yaxshilash va qurilishni nazorat qilish tizimini takomillashtirish choralari to'g'risida"gi PQ-4586-son qarori[37] hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-avgustdagi "Obyektlarda davlat qurilish nazoratini amalga oshirish bo'yicha ma'muriy reglament hamda obyektlarning xavf-xatarlar toifalari tasnifini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-son qarori [38] qarorini qabul qilinishi va uning Namangan viloyatida ijrosini ta'minlanishi tarmoqda ijobiy natijalarga erishishga olib keldi (2-jadval).

2-jadvalda keltirilgan Namangan viloyati yalpi hududiy mahsulotidagi hajmining 2010–2022-yillardagi o'rtacha o'zgarishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yalpi hududiy mahsulotidagi hajmi o'rtacha 16523,3 mlrd. so'mga o'zgargan bo'lib, bu yillar bo'yicha olinganda o'rtacha 7,4 %ga oshganligini ta'kidlash o'rinli. Bu davr mobaynida qurilish sanoatining yalpi hududiy mahsulotiga qo'shgan hissasi o'rtacha 5,7 foizga teng bo'lgan. Namangan viloyatida qurilish tarmog'ida erishgan bunday ijobiy natijalar avvalambor, yuqorida ta'kidlab o'tilgan islohotlar natijasi bo'lsa, ikkinchidan tarmoqqa yo'naltirilgan investitsiya hajmining ortib borishi bilan izohlash mumkin. Ya'ni, 2010–2022-yillar davomida Namangan viloyati qurilish tarmog'iga yo'naltirilgan investitsiya hajmining o'rtacha 141,6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, 2022-yilning o'zida bu ko'rsatkich 287,0 mlrd. so'mga teng bo'lganligi bilan izohlanadi.

2-jadval: 2010–2022-yillarda qurilish sanoatining Namangan viloyati yalpi hududiy mahsulotidagi hajmi va ulushi

	Ko'rsatkichlar	2010	2015	2020	2021	2022
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd. so'm	3364,4	10826,9	27863,0	34194,1	41098,2
2.	O'tgan yilga nisbatan o'sish, %	110,3	107,7	105,1	109,7	106,6
3.	Qurilish sanoatining yalpi hududiy mahsulotiga qo'shgan hissasi, mlrd	197,3	452,4	2039,0	2410,2	2923,6
4.	Qurilishning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi, %	6,0	4,3	7,5	7,3	7,3
5.	Asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so'm	660,6	2227,5	12007,2	12982,0	14348,2
6.	O'tgan yilga nisbatan o'sishi, %	90,3	108,5	88,0	100,5	101,2
7.	Qurilishga kiritilgan investitsiyalar, mlrd	9,9	40,1	228,1	142,8	287,0
8.	O'tgan yilga nisbatan o'sishi, %	99,1	100,3	100,1	101,4	100,6
9.	Tugallangan qurilish ishlari hajmi, mlrd.	1010,4	4678,2	5556,7	6762,3	7132,3
10.	O'tgan yilga nisbatan o'sishi, %	132,9	102,6	118,3	109,1	110,3

So'nggi yillarda mamlakatda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga oid olib borilayotgan islohotlar, ochiqlik va shaffoflik, xalqaro hamkorlikning kengayishi va mamlakatda qulay investitsiya muhitining yaratilishi, qurilish tarmog'ida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan chet el investitsiyalar hajmining keskin ravishda ortishiga sabab bo'ldi. Xususan, bu ko'rsatkich 2017-yildagi 12,1 mln. so'mdan 2020-yilda 3,5 trln. so'mga va 2022-yilda dastlabki ma'lumotlarga asosan 4,1 trln. so'mga yetgan. Qurilish tarmog'iga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalarning ortishi investitsiya va boshqa dasturlar doirasida yuqori texnologik va texnik ishlab chiqarishni yaratish, modernizatsiya qilish va yirik infratuzilmalar qurilishining ortishiga xizmat qilmoqda.



1-rasm: Qurilish industriyasining jami va investitsion kapital qo'yilmalarining bog'liqligi

Rasmdan ko'rinib turibdiki, umumiy kapital qo'yimlar qurilishga qo'yilgan investitsiyalarga nisbatan tezroq o'sadi va qurilish sohasidagi kapital qo'yimlar 9,9 mlrd. so'mga yetshi bilan 660,6 mlrd. so'mga solishtirganda 1,5 foizini tashkil etdi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, 2022-yilda 2010-yilga nisbatan qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi deyarli 29,0 barobar o'sganligini kuzatish mumkin. So'nggi bir necha yil ichida bozorning bosqichma-bosqich o'zgarishi natijasida qurilishning umumiy ko'rsatkichlarida ijobiy tendensiya kuzatildi. 2020–2022-yillar davomida O'zbekistonda qurilish mahsulotlari turlari bo'yicha tugallangan qurilish ishlari hajmi 4-jadvalda keltirilgan (4-jadval).

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, qurilishning umumiy hajmi 2013-yilga nisbatan 2022-yilda 6762,3 mlrd. so'm yoki 25,1 foizga oshgan. Ammo 2020-yilda qurilish va uning deyarli barcha konstruktiv elementlari (turar-joy binolari bundan mustasno), ya'ni 2019-yilga nisbatan 34,8 foizga sezilarli o'sishi kuzatildi. 2021-yilda qurilish ishlarining biroz barqarorlashuvi kuzatilmoqda, biroq 2021-yildan 2020-yilgacha qurilishning umumiy hajmi 5556,7 mlrd. so'mga yoki 18,8 foizga oshgan. Shu sababli, butun davr uchun biz 2022-yildagi zanjir tezligidan yuqori o'sish sur'atini ko'ramiz.

4-jadval: Namangan viloyatida qurilish mahsulotlari turlari bo'yicha tugallangan qurilish ishlari hajmi

Yil/o'sish	Qurilish, jami	Bino	Shundan		Muhandislik binolari
			Turar joy	Noturar joy	
2019, mlrd. so'm	3471	2547,7	2196,1	351,6	677,7
2020, mlrd. so'm	4678,2	3447,8	2954,8	493,0	906,8
Zanjirning o'sish sur'atlari, %	134,8	135,3305	134,5	140,2	133,8
2021, mlrd. so'm	5556,7	4123,1	3430,4	692,7	1063,8
Zanjirning o'sish sur'atlari, %	118,8	119,5844	116,1	140,5	117,3
2022, mlrd. so'm	6762,3	5125,8	4464,6	661,2	1240,4
Zanjirning o'sish sur'atlari, %	121,7	124,3	130,1	95,5	116,6
Asosiy o'sish sur'atlari, %	125,1	126,4	126,9	125,4	122,6



Bu o'zgarishlar nafaqat qurilishning umumiy hajmlari tarkibida sodir bo'ladi, balki qurilish mahsulotlari tur-larining haqiqiy hajmlarida ham tahlil qilingan davr uchun faqat ijobiy o'zgarishlarga ega bo'ldi. Shu ma'noda, qurilish iqtisodiyotning boshqa tarmog'i kabi viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Qurilish industriyasining rivojlanishi muqarrar ravishda mamlakatda iqtisodiy yuksalish va ko'plab ijtimoiy muammolarning hal etilishiga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi bosqichda ushbu sohaning raqobatbardoshligi haqida gapirish juda qiyin. Agar mintaqaviy miqyosda markaziy tumanlar va yirik millioner shaharlar qurilish tashkilotlarining katta quvvatlari va investitsion jozibadorligi tufayli ustunlik tendensiyasi aniq kuzatilgan bo'lsa, u holda jahon miqyosida mamlakatimiz qurilish sanoati zarur moliyaviy va tashkiliy o'zgarishlarning yo'qligi bois ancha orqada qolmoqda.

Albatta, qurilish tarmog'ining ishlashini rivojlanishi, tegishli, mavjud ta'minlovchi tarmoqlarni muvaffaqiyatli rivojlantirmasdan tasavvur qilish qiyin. Qurilish jarayoni yuqori darajadagi moddiy intensivlik bilan tavsiflanadi, bu esa, shunga ko'ra, qurilish materiallari sanoatini qurilish mahsulotlarini yaratish uchun zarur materiallar bilan ta'minlaydigan yetakchi o'ringa olib keladi. Qurilish materiallari sanoati o'ziga xos qurilish materiallari bozorini tashkil etuvchi yigirmadan ortiq sanoatni o'z ichiga olgan ko'p tarmoqli sohadir.

Bunda qurilishning insoniy, moddiy, energiya va axborot resurslarni ehtiyotkorlik bilan ta'minlashni nazarda tutiladi. Qayd etish lozimki, sanoatni, qishloq xo'jaligini, transportni va qurilish o'zini turdosh tarmoqlar bilan optimal o'zaro bog'liqlikda rivojlantirish zarurati mavjud, bu bog'liqliksiz qurilish jarayonini va qurilish materiallari ishlab chiqarishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu mulohaza qurilish materiallari bozoriga ham taalluqlidir. Bu juda istiqbolli, shuning uchun unga e'tibor qaratish va nafaqat ichki bozorni, balki tashqi bozorni ham zabt etish kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, Qurilish jarayonini hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik maqsadlari bilan muvofiqlashtirishda qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikni ta'minlash mexanizmi ishlab chiqish taklif etiladi.

Xulosa qilib aytganda, kapital qurilish ishlab chiqarish vositalarining ishlash imkoniyatini ta'minlaydigan moddiy sharoitlarni yaratadi. Qurilish industriyasi umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, loyiha-tadqiqot va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, qurilish industriyasi korxonalari qurilish birlashmalari tarkibida, shuningdek, qurilish-montaj ishlarini tejamkorlik bilan bajaruvchi tashkilotlar faoliyatini birlashtiradi. Bundan ko'rinadiki, qurilish tarmoqlari samaradoriligini aniqlash keltirib o'tilgan tarmoqlarning sinergetik samarasi orqali ifoda etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. https://www.designingbuildings.co.uk/wiki/Global_construction_market_projections_from_2020_to_2030
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi Uzbekistonning Tarakkiyot strategiyasi" (11-bo'lim 22-Maxcan)//www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 20.09.2019-yildagi PQ-4464-son qarori, <https://lex.uz/docs/4523181>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish-montaj ishlari sifatini tubdan yaxshilash va qurilishni nazorat qilish tizimini takomillashtirish choralari to'g'risida" 05.02.2020-yildagi PQ-4586-son qarori, <https://lex.uz/docs/4726130>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Obyektlarda davlat qurilish nazoratini amalga oshirish bo'yicha ma'muriy reglament hamda obyektlarning xavf-xatarlar toifalari tasnifini tasdiqlash to'g'risida" 20.08.2020-yildagi 496-son qarori, <https://lex.uz/docs/4959990>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 27.11.2020-yildagi PF-6119-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/5130468>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 20.09.2019 yildagi PQ-4464-son qarori, <https://lex.uz/docs/4523181>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 13.04.2023-yildagi PF-51-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/6433775>
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash hamda toshkent shahrida boshpanasiz, og'ir turmush sharoitiga tushib qolgan fuqarolarning yashash sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" 06.12.2021-yildagi 737-son qarori, <https://lex.uz/uz/docs/5760624>
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalangan holda muallif ishlanmasi
11. Куценко А. В. Организационно-экономический механизм управления эффективностью деятельности предприятий потребительской кооперации Украины: монография. Полтава: РОВ ПУСКУ, 2008. 23-24 с. Куценко А. В. Организационно-экономический механизм управления эффективностью деятельности предприятий потребительской кооперации Украины: монография. Полтава: РОВ ПУСКУ, 2008. 23-24 с.



12. Светличная Я.В. Оценка и обеспечение экономической результативности функционирования дорожно-строительных предприятий: автореф. дис...канд. экон. наук: 08.07.03. Харьков, 2002. 19 с.
13. Говорушко Т.А., Климаш Н.И. Управление эффективностью деятельности предприятий на основе стоимостно ориентированного подхода: монография. Киев: Логос, 2013. 204 с.
14. Говорушко Т.А., Климаш Н.И. Управление эффективностью деятельности предприятий на основе стоимостно ориентированного подхода: монография. Киев: Логос, 2013. 204 с.
15. Петровцы М.М. Эффективность деятельности предприятий-природопользователей (по материалам предприятий Закарпатской области): автореф. дис...канд. экон. наук: 08.06.01. Ужгород, 2004. 7 с.
16. Ibrogimov, S. (2022). Assessment indicators of theoretical aspects of management of economic efficiency of enterprises. NamMQI.
17. Ibrogimov, S. (2022). Korxonalarning iqtisodiy samaradorligini boshqarishning nazariy jihatlar va uni baholash uchun ko'rsatkichlarni tanlash. NamMQI.
18. Ibrogimov, S. (2022). Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari faoliyatining boshqarish tamoyillari. NamMQI.
19. Ibrogimov, S. (2022). Namangan viloyatida sanoat tarmog'ini rivojlantirish tendensiyalari. Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.